



## SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
*2023- yil yanvar-noyabr*





## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **3 262** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **58** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 204** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi **4 303,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,0 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **315,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 988,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **408,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **119,2 %**) tashkil etdi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4 303,4</b>	<b>106,0</b>	<b>315,0</b>	<b>106,4</b>	<b>3 988,4</b>	<b>106,0</b>
<b>Guliston sh.</b>	1 643,0	105,2	147,9	94,0	1 495,1	106,5
<b>Shirin sh.</b>	57,0	104,5	0,1	46,1	56,9	104,8
<b>Yangiyer sh.</b>	412,6	105,3	22,7	99,6	389,8	105,7
<i>tumanlar:</i>						
<b>Boyovut</b>	260,7	104,5	73,8	98,6	186,9	107,0
<b>Guliston</b>	228,6	113,2	29,3	7,7 m.	199,3	100,8
<b>Mirzaobod</b>	286,0	107,9	9,3	146,4	276,7	106,9
<b>Oqoltin</b>	169,0	104,1	3,0	118,3	166,0	103,9
<b>Sardoba</b>	139,9	105,0	2,0	108,3	137,9	105,0
<b>Sayxunobod</b>	161,0	109,5	8,8	193,8	152,2	106,8
<b>Sirdaryo</b>	805,8	105,5	14,3	71,5	791,5	106,5
<b>Xovos</b>	139,8	109,3	3,6	2,6 m.	136,2	107,6

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatning Sayxunobod (**109,5** %), Guliston (**113,2** %) va Xovos (**109,3** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-noyabr, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan **117,0 %** ni yoki **2 572,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
(2023- yil yanvar –noyabr oylari)



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri **38,2 %** bilan **1 643,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Shirin shahri **1,3 %** bilan **57,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 988,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,0** % ni tashkil qildi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,7** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **6,4** % ga ko'paydi va **315,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,3** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (**99,8 %**), Sardoba (**98,6 %**) va Sirdaryo (**98,2 %**) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,3 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston sh. (**9,0 %**) va Boyovut (**28,3 %**), Sayxunobod (**5,5 %**), Guliston (**12,8 %**) tumanlarida kuzatildi.



## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4 765,1</b>	<b>104,0</b>
Guliston sh.	16 903,3	103,8
Shirin sh.	2 952,0	103,4
Yangiyer sh.	8 741,1	102,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	1 898,6	102,4
Guliston	2 911,9	110,2
Mirzaobod	3 593,3	105,0
Oqoltin	3 056,0	102,2
Sardoba	2 007,1	103,4
Sayxunobod	1 958,4	107,2
Sirdaryo	5 942,6	103,7
Xovos	1 381,6	107,4

2023- yilning yanvar-noyabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 765,1** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,0** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**16 903,3** ming. so'm), Yangiyer shahri (**8 741,1** ming. so'm) va Sirdaryo (**5 942,6** ming. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **408,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **119,2** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **165,5** mlrd. so'mni (**104,5** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **243,3** mlrd so'mni tashkil etdi (**131,1** %).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### ✓ Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI





	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>408,8</b>	<b>119,2</b>	<b>165,5</b>	<b>104,5</b>	<b>243,3</b>	<b>131,1</b>
Guliston sh.	91,5	101,3	91,3	101,2	0,1	154,7
Shirin sh.	-	-	-	-	-	-
Yangiyer sh.	19,6	136,1	19,6	136,1	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	14,8	101,7	14,8	101,7	-	-
Guliston	54,8	127,9	7,1	150,9	47,7	124,3
Mirzaobod	46,8	169,5	-	-	46,8	168,5
Oqoltin	-	-	-	-	-	-
Sardoba	52,0	115,4	2,0	41,6	50,0	123,5
Sayxunobod	57,8	121,8	-	-	57,8	126,1
Sirdaryo	30,9	110,6	30,7	110,3	0,2	180,7
Xovos	40,6	124,0	-	-	40,6	124,0

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.













2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **165 536,8** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**72 574,7** mln. so'm) to'g'ri keldi.

<b>Qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>		<b>Mln. so'm</b>
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>72 574,7</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>29 912,2</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>19 298,0</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>10 031,0</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	<b>10 429,2</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>8 274,5</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>5 640,0</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>339,7</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>5 093,3</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>2 610,1</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>1 334,1</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>0,0</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **243 257,8** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **192 647,7** mln. so'm, qo'y va echkilar **39 171,1** mln. so'mni, otlar **10 992,9** mln. so'mni, parrandalar **446,2** mln. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so'm
	2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	84 553,5
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	39 698,0
	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	68 396,2
	Qo'ylar	29 837,8
	Otlar	10 992,9
	Echkilar	9 333,2
	Kurka, o'rdak, g'oz	230,5
	Tovuqlar	192,5
	Quyونlar	9,0
	Qushlar	14,2

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **692** tani tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **3,1 %** ni tashkil etib, **133 644,6** mln. soʻmga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **13,4 %** ga koʻpaydi. Bunda savdo aylanmasining **85,4 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.


	Jami mln. soʻm	2022- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma -lar, mln. soʻm	2022- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda	Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlar, mln. soʻm	2022- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>133 644,6</b>	<b>113,4</b>	<b>114 117,1</b>	<b>108,4</b>	<b>13 394,6</b>	<b>106,0</b>
Guliston sh.	60 385,7	108,7	56 585,4	108,7	3 800,3	108,0
Shirin sh.	2 497,0	106,4	2 257,1	106,4	239,9	106,0
Yangiyer sh.	18 421,2	109,9	16 331,3	110,3	2 090,0	107,0
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	4 734,7	106,4	3 877,3	106,7	857,4	105,0
Guliston	9 363,5	106,8	8 478,7	106,3	884,7	111,0
Mirzaobod	7 700,2	110,0	7 283,4	110,4	416,8	104,0
Oqoltin	3 219,0	107,4	2 615,0	108,7	604,0	102,0
Sardoba	8 581,9	3,8 m.	1 846,3	108,6	602,7	103,0
Sayxunobod	3 999,6	104,7	3 371,6	105,1	628,0	103,0
Sirdaryo	11 947,9	105,6	8 954,6	105,9	2 993,3	105,0
Xovos	2 793,9	108,8	2 516,5	109,2	277,5	106,0



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- dekabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **363,4** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **25,6** % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik biznes korxonalarini savdo hajmi **352,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **126,6** %), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **11,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,5** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>363,4</b>	<b>100,0</b>
Guliston sh.	124,1	34,1
Shirin sh.	1,0	0,3
Yangiyer sh.	8,0	2,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	2,1	0,6
Guliston	12,8	3,5
Mirzaobod	1,0	0,3
Oqoltin	125,7	34,6
Sardoba	5,4	1,5
Sayxunobod	2,6	0,7
Sirdaryo	79,4	21,8
Xovos	1,3	0,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**124,1** mlrd. so'm), Oqoltin (**125,7** mlrd. so'm) va Sirdaryo (**79,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 304,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,3 %** ga ko‘paydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi hajmi statistik hisoblarga qaraganda **2 760,5** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,1 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **83,6 %** ni tashkil qildi.




## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI



2023- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **1301** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **19** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 282** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Oqoltin (**144,2**), Sayxunobod (**175,1**) hamda Xovos (**110,5**) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3 303,4</b>	<b>106,3</b>	<b>543,5</b>	<b>126,8</b>	<b>2 760,5</b>	<b>103,1</b>
Guliston sh.	1 006,3	103,3	39,9	80,0	966,4	104,6
Shirin sh.	12,9	102,8	-	-	12,9	102,8
Yangiyer sh.	188,4	103,6	0,7	80,9	187,7	103,7
Boyovut	282,5	99,9	130,3	96,9	152,2	102,6
Guliston	49,7	85,9	13,3	60,5	36,4	101,5
Mirzaobod	134,3	86,6	12,6	33,4	121,7	103,6
Oqoltin	56,8	144,2	45,3	2,0 m.	11,5	66,5
Sardoba	104,6	92,5	13,4	56,5	91,1	102,1
Sayxunobod	456,7	175,1	238,2	9,8 m.	218,4	92,3
Sirdaryo	859,0	96,4	13,0	14,5	845,9	105,6
Xovos	152,8	110,5	36,6	152,6	116,2	101,7



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistika bo'limi**